

## TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI YETUKLIK DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

**Berdiyev Sunnatullo Alikulovich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
assistant-o'qituvchi

E-mail: [sunnatulloberdiyev22@gmail.com](mailto:sunnatulloberdiyev22@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Mazkur tadqiqotda transformatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqamli yetuklik darajasini baholash metodologiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida DigCompOrg, DigCompEdu, SELFIE va oliy ta'limga yo'naltirilgan xalqaro yetuklik modellari qiyosiy tahlil qilindi. Natijada strategik boshqaruv, o'qitish va o'rganish, raqamli kompetensiyalar, sifat kafolati, raqamli kontent, AKT infratuzilmasi hamda raqamli madaniyatni qamrab oluvchi yetti o'lchamli baholash tizimi shakllantirildi. Taklif etilgan metodologiya raqamli rivojlanish holatini kompleks baholash, kuchli va rivojlantirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari universitetlarda strategik rejalashtirishni takomillashtirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun amaliy asos yaratdi.

**Kalit so'zlar:** raqamli yetuklik, oliy ta'lim, raqamli transformatsiya, DigCompOrg, SELFIE, raqamli kompetensiya, AKT infratuzilmasi, strategik boshqaruv, raqamli madaniyat, baholash metodologiyasi.

### **Аннотация**

В исследовании была разработана методология оценки уровня цифровой зрелости высших учебных заведений в условиях трансформации. В ходе работы был проведён сравнительный анализ международных моделей цифровой зрелости, включая DigCompOrg, DigCompEdu, SELFIE и специализированные модели для высшего образования. В результате была сформирована семимерная система оценки, охватывающая стратегическое управление, преподавание и обучение, цифровые компетенции, обеспечение качества, цифровой контент, ИКТ-инфраструктуру и цифровую культуру. Предложенная методология позволила комплексно оценить состояние цифрового развития, определить сильные стороны и направления дальнейшего совершенствования. Результаты исследования создали практическую основу для совершенствования стратегического планирования, мониторинга процессов цифровой трансформации и повышения эффективности управленческих решений в университетах.

**Ключевые слова:** цифровая зрелость, высшее образование, цифровая трансформация, DigCompOrg, SELFIE, цифровые компетенции, ИКТ-инфраструктура, стратегическое управление, цифровая культура, методология оценки.

## Abstract

This study developed a methodology for assessing the digital maturity level of higher education institutions under conditions of digital transformation. The research conducted a comparative analysis of international digital maturity frameworks, including DigCompOrg, DigCompEdu, SELFIE, and specialized higher education models. As a result, a seven-dimensional assessment system was established covering strategic leadership, teaching and learning, digital competencies, quality assurance, digital content, ICT infrastructure, and digital culture. The proposed methodology enabled a comprehensive evaluation of digital development, identification of institutional strengths, and determination of areas requiring further improvement. The findings provided a practical foundation for enhancing strategic planning, monitoring digital transformation processes, and supporting evidence-based management decisions in universities. The methodology also contributed to the systematic assessment of institutional digital development.

**Keywords:** digital maturity, higher education, digital transformation, DigCompOrg, SELFIE, digital competencies, ICT infrastructure, strategic leadership, digital culture, assessment methodology.

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimi so'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalarning chuqur ta'siri ostida tarkibiy yangilanish bosqichiga o'tdi. Universitetlar o'qitish, ilmiy izlanish va boshqaruv jarayonlarini raqamli vositalar bilan boyitar ekan, ularning institutsional salohiyati yangidan shakllanmoqda. Raqamli transformatsiya muassasalarning raqobatbardoshligini oshiruvchi izchil rivojlanish omiliga aylandi va ta'lim sifatini, moslashuvchanlikni hamda bilim yaratish quvvatini sezilarli darajada kuchaytirdi [1]. Universitet faoliyatining barcha bo'g'inlari - o'quv rejasidan tortib baholash va kasbiy rivojlanishgacha - raqamli imkoniyatlardan keng foydalanish orqali yangi ufqlar ochmoqda [4].

Transformatsiya jarayonining samaradorligini boshqarish uchun muassasaning raqamli holatini obyektiv o'lchaydigan vositaga ehtiyoj tug'iladi. Raqamli yetuklik tushunchasi aynan ushbu vazifani bajaradi: u universitetning raqamli vositalardan foydalanishdagi tayyorgarligini va ushbu vositalarni strategik maqsadlarga muvofiq joriy etish darajasini ifodalaydi. Yetuklikni izchil o'lchash muassasaga o'zining kuchli yo'nalishlarini mustahkamlash va rivojlanishga muhtoj sohalarni aniq belgilash imkonini beradi [2]. Baholashning ishonchli metodologiyasi raqamli rivojlanishni tasodifiy harakatlar majmuidan rejalashtirilgan va kuzatib boriladigan jarayonga aylantiradi.

Adabiyotda raqamli yetuklikni baholashga oid bir qancha qimmatli andozalar mavjud bo'lsa-da, ularning o'lchamlari, amashunosligi va bosqichlanish mantig'i turlicha shakllangan. Oliy ta'limning o'ziga xosligi - ilmiy izlanish, jamiyatga xizmat va akademik avtonomiya kabi jihatlari - universitetga moslangan yaxlit baholash tuzilmasini talab qiladi. Maqolaning maqsadi transformatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqamli yetuklik darajasini baholashga qaratilgan, xalqaro andozalarga tayanuvchi va amalda qo'llash mumkin bo'lgan metodologiyani ishlab

chiqishdan iborat. Quyidagi bayon adabiyotlar sharhini, metodologik asoslarni, qiyosiy tahlilni va amaliy tavsiyalarni izchil tarzda birlashtiradi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Raqamli yetuklikni baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar dastlab dasturiy muhandislikdagi imkoniyat yetukligi modelidan oziqlandi. Ushbu model jarayonlarni boshlang'ich holatdan optimallashtirilgan holatga qadar besh bosqichda tartiblashtirgan va keyinchalik tashkiliy rivojlanishni baholashning keng tarqalgan mezoniga aylangan. Besh-bosqichli mantiq raqamli transformatsiya sohasiga ham ko'chirildi va bugungi kunda ko'plab tuzilmalar boshlang'ich, shakllanayotgan, tizimlashgan, boshqariladigan va optimallashtirilgan darajalarni ajratadi. Tashkilot quyi bosqichlardan yuqori bosqichlarga o'tgan sari raqamli tashabbuslarni amalga oshirishdagi izchillik va bashoratlilik ortib boradi.

Yevropa miqyosidagi izlanishlar raqamli salohiyatni baholashning yaxlit tilini yaratishga qaratildi. Yevropa Komissiyasining Qo'shma tadqiqot markazi ishlab chiqqan DigCompOrg mezoniy tuzilmasi ta'lim tashkilotlarining raqamli salohiyatini yetti tayanch element doirasida tavsiflaydi: rahbariyat va boshqaruv amaliyoti, o'qitish va o'rganish, kasbiy rivojlanish, baholash amaliyoti, mazmun va o'quv reja, hamkorlik va tarmoqlanish hamda infratuzilma [3]. Ushbu tuzilma muassasalarni o'z taraqqiyoti yuzasidan o'zini-o'zi tahlil qilishga undaydi va siyosat ishlab chiquvchilarga qiyoslash hamda tajriba almashish uchun mustahkam asos beradi [4]. Mezoniy tuzilma asosida yaratilgan SELFIE o'z-o'zini baholash asbobi rahbarlar, o'qituvchilar va talabalarning qarashlarini birlashtirib, muassasaga aniq ma'lumotlarga asoslangan ko'rgazmali hisobot taqdim etadi [7].

O'qituvchilar va shaxslar darajasidagi raqamli kompetensiyani baholash uchun bir-birini to'ldiruvchi tuzilmalar joriy etilgan. DigCompEdu o'qituvchining raqamli kompetensiyasini olti soha bo'yicha izohlaydi va texnik ko'nikmalardan ko'ra texnologiyalardan pedagogik maqsadda foydalanish mahoratiga urg'u beradi [6]. Shaxslar uchun mo'ljallangan DigComp tuzilmasi esa raqamli jamiyatda zarur bo'lgan kompetensiyalarni tavsiflaydi va uning yangilangan tahriri sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik hamda barqarorlik kabi yangi yo'nalishlarni qamrab oldi [5]. Mazkur tuzilmalar muassasa darajasidagi baholashni shaxs va o'qituvchi darajasidagi salohiyat bilan bog'laydigan yaxlit ekotizimni shakllantiradi.

Oliy ta'limga bevosita yo'naltirilgan modellar o'lchamlar tarkibini boyitdi. Durek va hammualliflari taklif qilgan DMMHEI tuzilmasi sakkiz o'lchamni - rahbariyat, rejalashtirish va boshqaruv, sifat kafolati, ilmiy-tadqiqot faoliyati, texnologiya transferi, o'qitish-o'rganish, AKT madaniyati va AKT infratuzilmasini - qamrab oldi [1]. Poletaikin va hammualliflari ta'lim tashkilotlarida raqamli yetuklikni texnik-texnologik, kognitiv, ijtimoiy, psixologik va ma'naviy o'lchamlarda baholashni asosladi, Shevtsova va hammualliflari esa to'qqiz o'lchamli modelni - tashkiliy madaniyat, kompetensiyalar, jarayonlar, mahsulotlar, modellar, ma'lumotlar, infratuzilma, raqamli muhit va shaxsni qamrovchi tuzilmani taqdim etdi [1]. Yaqinda e'lon qilingan nazariy-metodologik model sakkiz o'lchamni yagona tizimga jamlab,

raqamli texnologiya, ma'lumotlar boshqaruvi, shaxs va raqamli madaniyat hamda raqamli jarayonlarni kesib o'tuvchi tarkibiy qismlar sifatida belgiladi [1].

Tizimli sharhlar raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyat omillarini umumlashtirib, rahbariyatning yetakchi roli, aniq strategiya va kasbiy rivojlanish ahamiyatini ko'rsatdi [10]. Oliy ta'lim sohasidagi sharhlar transformatsiyaning ijtimoiy, tashkiliy va texnologik jihatlarini birlashtirgan ko'p qirrali jarayon ekanini asosladi [11], raqamli transformatsiya va tashkiliy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan bibliometrik izlanish esa ushbu yo'nalishga qiziqishning barqaror o'sayotganini tasdiqladi [12]. Mavjud manbalarning umumiy mazmuni shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim uchun moslangan, o'lchamlari aniq belgilangan va bosqichlanishi izchil baholash metodologiyasini ishlab chiqish nazariy hamda amaliy jihatdan asosli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

## METODOLOGIYA


Metodologik yondashuv qiyosiy-tahliliy mantiqqa asoslandi. Birinchi qadamda xalqaro e'tirof etilgan andozalar - DigCompOrg mezoniy tuzilmasi [3], SELFIE asbobi [7] va oliy ta'limga yo'naltirilgan yetuklik modellari [1] mazmunan qiyoslandi; har bir manbaning o'lchamlari, atamashunosligi va bosqichlanish mantig'i belgilab olindi. Ikkinchi qadamda takrorlanuvchi o'lchamlar guruhlandi va oliy ta'limning o'ziga xos jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit tarkib shakllantirildi. Uchinchi qadamda har bir o'lchamga baholash shkalasi va vazn koeffitsiyenti biriktirildi, so'ngra yagona yetuklik indeksini hisoblash tartibi asoslandi.

Taklif qilingan tuzilma yetti tarkibiy o'lchamdan iborat. Birinchi o'lcham - strategik rahbariyat va boshqaruv - raqamli rivojlanish maqsadlarining muassasa strategiyasiga singdirilganini ifodalaydi. Ikkinchi o'lcham - o'qitish va o'rganish amaliyoti - raqamli vositalarning pedagogik jarayonga joriy etilganini o'lchaydi. Uchinchi o'lcham professor-o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va kasbiy rivojlanishini qamraydi va DigCompEdu tuzilmasidagi yondashuvga tayanadi [6]. To'rtinchi o'lcham baholash va sifat kafolati jarayonlaridagi raqamli yechimlarga e'tibor qaratadi. Beshinchi o'lcham raqamli mazmun, o'quv reja va kontentning rivojlanganligini ko'rsatadi. Oltinchi o'lcham AKT infratuzilmasi va ma'lumotlar boshqaruvini birlashtiradi. Yettinchi o'lcham raqamli madaniyat, hamkorlik va tarmoqlanish darajasini ifodalaydi.

Har bir o'lcham besh bosqichli shkala bo'yicha - boshlang'ichdan optimallashtirilganga qadar - bir dan beshgacha bo'lgan ball bilan baholanadi. O'lcham bahosi uning ahamiyatini ifodalovchi vazn koeffitsiyentiga ko'paytiriladi va barcha qiymatlar yig'indisi yagona raqamli yetuklik indeksini beradi. Indeks quyidagi munosabat bilan ifodalanadi:  $I(RY) = \sum (w \times d)$ , bu yerda  $d$  - o'lcham bahosi,  $w$  - uning vazni va  $\sum w = 1$ . Vazn koeffitsiyentlari muassasaning ustuvor yo'nalishlariga qarab moslashtiriladi, ammo ularning yig'indisi doimo birga teng bo'lib qoladi. Yagona indeks muassasaning umumiy holatini bitta qiymatda jamlaydi, o'lchamlar bo'yicha taqsimot esa kuchli va rivojlanuvchi sohalarning aniq profilini ko'rsatadi.

Metodologiyaning amaliy qiymati uning shaffofligida namoyon bo'ladi. Baholash natijasi bir vaqtning o'zida umumlashtirilgan indeks hamda o'lchamlar kesimidagi

batafsil profil ko‘rinishida taqdim etiladi. Ushbu ikki qatlamli natija muassasaga o‘z holatini boshqa universitetlar bilan qiyoslash, rivojlanish maqsadlarini realistik belgilash va investitsiyalarni bog‘liqlik mantig‘i asosida tartiblash imkonini beradi [2]. Baholashning takrorlanuvchanligi raqamli yetuklikning o‘shishini vaqt bo‘yicha kuzatishga zamin yaratadi va boshqaruv qarorlarini ma‘lumotga asoslangan holga keltiradi.



**1-rasm. Oliy ta‘lim muassasalarining raqamli yetuklik darajasini baholash metodologiyasining tarkibiy tuzilmasi<sup>1</sup>**

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qiyosiy tahlil mavjud andozalar o‘rtasida mazmuniy yaqinlik mavjudligini ko‘rsatdi. O‘lchamlar soni va atamashunoslik turlicha bo‘lsa-da, deyarli barcha tuzilmalar rahbariyat, o‘qitish, infratuzilma, kompetensiya va raqamli madaniyat yo‘nalishlarini tayanch sifatida belgilaydi. 1-jadval asosiy andozalarning o‘lchamlar tarkibini umumlashtiradi va ularning bir-birini to‘ldiruvchi mohiyatini ko‘rsatadi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, taklif qilingan yetti o‘lchamli tuzilma mavjud andozalarning eng barqaror yo‘nalishlarini jamlaydi va oliy ta‘lim faoliyatining to‘liq qamrovini ta‘minlaydi. DigCompOrg tuzilmasidagi rahbariyat, o‘qitish, infratuzilma va hamkorlik elementlari [3] DMMHEI modelidagi sifat kafolati va ilmiy-tadqiqot o‘lchamlari bilan uyg‘unlashadi [1], natijada universitetning ham pedagogik, ham institutsional jihatlari yagona tizimda qamrab olinadi. Ushbu uyg‘unlik metodologiyaning nazariy asosligini mustahkamlaydi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

**1-jadval**
**Raqamli yetuklikni baholash andozalarining qiyosiy tahlili**

Andoza yoki model	O'lchamlar soni	Asosiy o'lchamlar (qisqacha)	Manba
DigCompOrg	7 ta tayanch element	rahbariyat va boshqaruv; o'qitish va o'rganish; kasbiy rivojlanish; baholash amaliyoti; mazmun va o'quv reja; hamkorlik va tarmoqlanish; infratuzilma	[3]
DMMHEI	8 ta o'lcham	rahbariyat; rejalashtirish va boshqaruv; sifat kafolati; ilmiy-tadqiqot; texnologiya transferi; o'qitish-o'rganish; AKT madaniyati; AKT infratuzilmasi	[1]
Poletaikin va boshqalar	5 ta o'lcham	texnik-texnologik; kognitiv; ijtimoiy; psixologik; ma'naviy	[1]
Shevtsova va boshqalar	9 ta o'lcham	tashkiliy madaniyat; kompetensiyalar; jarayonlar; mahsulotlar; modellar; ma'lumotlar; infratuzilma va vositalar; raqamli muhit; shaxs	[1]
Nazariy-metodologik model	8 ta o'lcham	raqamli texnologiya; ma'lumotlar boshqaruvi; shaxs va raqamli madaniyat; raqamli jarayonlar va boshqa tarkibiy yo'nalishlar	[1]

O'z-o'zini baholash asboblari amaliy qiymati keng ko'lamli tajriba bilan tasdiqlandi. SELFIE asbobi ishga tushirilganidan bir yil o'tib 450 mingdan ortiq talaba va o'qituvchi tomonidan qo'llanildi va muassasalarning raqamli holatini ko'rgazmali tarzda aks ettirdi [9]. O'qituvchilarga mo'ljallangan SELFIE varianti 100 mingdan ortiq foydalanuvchini qamrab olib, kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qildi [8]. Asbobning ilk tajriba bosqichida o'n to'rt mamlakatdagi ko'plab maktab uning ishonchliligi va izchilligini sinovdan o'tkazdi [7]. Ushbu raqamlar o'z-o'zini baholashga asoslangan yondashuvning amalda samarali ekanini va keng miqyosda qabul qilinishini ko'rsatadi.

Andozalarning izchil yangilanishi sohaning rivojlanish su'ratini namoyon etadi. DigComp tuzilmasining so'nggi tahriri su'niy intellekt, kiberxavfsizlik, farovonlik va barqarorlik kabi yo'nalishlarni qamrab oldi hamda besh yuzdan ortiq o'quv natijasini taqdim etdi [5]. Bunday yangilanish taklif qilingan metodologiyaning moslashuvchan bo'lishi zarurligini ko'rsatadi: o'lchamlar tarkibi va vazn koeffitsiyentlari yangi raqamli yo'nalishlarni qamrab oladigan tarzda qayta sozlanishi mumkin. Metodologiyaning ochiq tuzilishi uni vaqt sinovidan o'tgan barqaror vositaga aylantiradi.

Tizimli sharhlar natijalari taklif qilingan tuzilmaning ustuvorliklarini tasdiqladi. Muvaffaqiyat omillarini umumlashtirgan izlanish rahbariyatning yetakchi roli va aniq strategiyani birinchi o'ringa qo'ydi [10], sohaviy sharh transformatsiyaning ko'p qirrali tabiatini asosladi [11], tashkiliy samaradorlikni o'rgangan bibliometrik izlanish esa raqamli transformatsiya muassasa natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi [12]. Mazkur dalillar yetti o'lchamli metodologiyaning rahbariyat va strategiyaga alohida vazn berishini, o'lchamlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olishini hamda natijalarni amaliy qarorlarga bog'lashini oqlaydi. Yagona indeks va o'lchamlar profilining birgalikdagi taqdimoti universitetga raqamli rivojlanishni aniq, qiyoslanadigan va istiqbolli tarzda boshqarish imkonini beradi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan izlanish transformatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqamli yetuklik darajasini baholashga qaratilgan yaxlit metodologiyani asoslab berdi. Xalqaro andozalarning qiyosiy mazmunini birlashtirish orqali yetti tarkibiy o'lchamdan iborat tuzilma, ularni vaznlash tartibi va besh bosqichli yetuklik shkalasi shakllantirildi. Taklif qilingan yondashuv universitet faoliyatining pedagogik va institutsional jihatlarini yagona tizimda qamrab oldi hamda baholash natijasini ham umumlashtirilgan indeks, ham batafsil profil ko'rinishida taqdim etdi. Olingan natijalar ochiq manbalar bilan tasdiqlandi va metodologiyaning nazariy hamda amaliy jihatdan asoslilikini ko'rsatdi.

Amaliy qo'llash uchun bir qancha tavsiyalar shakllantirildi. Birinchidan, universitetlarga raqamli yetuklikni davriy ravishda baholash va natijalarni strategik rejalashtirishga bevosita bog'lash maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, o'z-o'zini baholashda rahbarlar, o'qituvchilar va talabalarning qarashlarini birlashtirish baholashning to'liqligini ta'minlaydi [7]. Uchinchidan, professor-o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini izchil rivojlantirish yuqori yetuklik bosqichlariga o'tishning kalit omiliga aylanadi [6]. To'rtinchidan, vazn koeffitsiyentlari va o'lchamlar tarkibini yangilanayotgan andozalarga moslab qayta sozlash metodologiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi [5].

Kelgusi izlanishlar metodologiyani amaliy sinovdan o'tkazish va turli muassasalar bo'yicha qiyosiy ma'lumotlar bazasini shakllantirish yo'nalishida rivojlantirilishi mumkin. Vazn koeffitsiyentlarini empirik asoslash, milliy ta'lim tizimining o'ziga xosligiga moslashtirish va yetuklik bosqichlari bo'yicha amaliy yo'riqnomalar ishlab chiqish metodologiyaning qiymatini yanada oshiradi. Taklif qilingan tuzilma universitetlarning raqamli rivojlanish yo'lini aniq, o'lchanadigan va

istiqbolli tarzda boshqarishga puxta zamin yaratadi va oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini ijobiy yo'nalishda qo'llab-quvvatlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Frontiers in Education*. Model for assessing the maturity level of digital transformation in higher education institutions: a theoretical-methodological approach. 2025. URL: <https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/feduc.2025.1581648/full>
2. *Frontiers in Education*. Development and validation of an instrument to assess the maturity of digital transformation in higher education institutions. 2025. URL: <https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/feduc.2025.1691178/full>
3. Kamylyis P., Punie Y., Devine J. Promoting Effective Digital-Age Learning: A European Framework for Digitally-Competent Educational Organisations (DigCompOrg). Joint Research Centre, European Commission, 2015. URL: [https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/bitstream/JRC98209/jrc98209\\_r\\_digcomporg\\_final.pdf](https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/bitstream/JRC98209/jrc98209_r_digcomporg_final.pdf)
4. European Commission, Joint Research Centre. European Framework for Digitally Competent Educational Organisations - DigCompOrg. URL: [https://joint-research-centre.ec.europa.eu/european-framework-digitally-competent-educational-organisations-digcomporg\\_en](https://joint-research-centre.ec.europa.eu/european-framework-digitally-competent-educational-organisations-digcomporg_en)
5. European Commission, Joint Research Centre. The European Commission updates its digital competence framework DigComp 3.0. 2025. URL: [https://joint-research-centre.ec.europa.eu/jrc-news-and-updates/european-commission-updates-its-digital-competence-framework-digcomp-2025-11-27\\_en](https://joint-research-centre.ec.europa.eu/jrc-news-and-updates/european-commission-updates-its-digital-competence-framework-digcomp-2025-11-27_en)
6. European Commission, Joint Research Centre. DigCompEdu - European Framework for the Digital Competence of Educators. URL: [https://joint-research-centre.ec.europa.eu/digcompedu\\_en](https://joint-research-centre.ec.europa.eu/digcompedu_en)
7. *Computers & Education*. Supporting the monitoring of the digital capacity of schools through optimal shortening of the SELFIE tool. 2023. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0360131523002154>
8. European Education Area, European Commission. SELFIE for TEACHERS reaches over 100,000 users. 2023. URL: <https://education.ec.europa.eu/news/selfie-for-teachers-reaches-over-100000-users>
9. European Commission. Teaching and learning in the digital age: 450,000 students and teachers use the EU's SELFIE tool for schools. 2019. URL: [https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip\\_19\\_6144](https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip_19_6144)
10. Bisri A., Putri A., Rosmansyah Y. A Systematic Literature Review on Digital Transformation in Higher Education: Revealing Key Success Factors. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 18(14), 2023. URL: <https://doi.org/10.3991/ijet.v18i14.40201>

11. Administrative Sciences (MDPI). Digital Transformation in the Higher Education Sector: A Systematic Literature Review. 2025. URL: <https://www.mdpi.com/2076-3387/16/1/1>

12. International Journal of Sustainable Development and Planning (IIETA). A Systematic Review on Digital Transformation and Organizational Performance in Higher Education. 2024. URL: <https://www.iieta.org/journals/ijstdp/paper/10.18280/ijstdp.190402>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**